

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**IBRAGIMOVA IRODA ARTIKMASHRABOVNA**

**POETIK TAFAKKURNING LISONIY REPRESENTATSIYALASHUVI**  
**(XX ASR O‘ZBEK SHE‘RIYATI MISOLIDA)**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Namangan – 2024**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on  
Philological Sciences**

**Ibragimova Iroda Artikmashrabovna**

Poetik tafakkurning lisoniy representatsiyalashuvi (XX asr o‘zbek she‘riyati  
misolida).....3

**Ibragimova Iroda Artikmashrabovna**

The Linguistic Representation of Poetic Thought (Using 20th Century uzbek  
Poetry as an Example) .....27

**Ибрагимова Ирода Артикмашрабовна**

Лингвистическая репрезентация поэтического мышления (на примере  
узбекской поэзии XX века).....53

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....57

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**IBRAGIMOVA IRODA ARTIKMASHRABOVNA**

**POETIK TAFAKKURNING LISONIY REPREZENTATSIYALASHUVI**  
**(XX ASR O‘ZBEK SHE‘RIYATI MISOLIDA)**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Namangan – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Fil11544 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Namangan davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.namdu.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Rozikova Gulbaxor Zaylobidinovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Normamatov Sultonbek Ermamatovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Madrahimov Ilhomjon Sobirovich**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Andijon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_soat \_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160119, Namangan shahri, Boburshoh ko‘chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 227-06-12; Tel.: (998-69) 228-85-01, Faks: 228-85-02. Web-sayt: www.namdu.uz, e-mail: info@namdu.uz faks: (+99869) 227-07-61; e-mail: info@namdu.uz.)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_- raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko‘chasi, 316-uy. Tel.: (99869) 227-29-81).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.  
(2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_raqamli reestr bayonnomasi).

**Z.Y.Sadikov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, filol.f.d. (DSc), professor

**I.O‘.Darvishov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari  
bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**F.I.Karimova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
filol.f.d. (DSc), dotsent

## KIRISH (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida poetik matnning lingvopoetik xususiyatlari yuzasidan bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, XX asrning ikkinchi yarmida yaratilgan poetik asarlarda shoir ijodiy tafakkurining aks etishini tizimli asoslash, badiiy manbalarning mazmuni va ahamiyatini kelajak avlodga yetkazish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayni davrda poetik tafakkurning lisoniy ifodasini olamning individual lisoniy manzarasi asosida tadqiq etish, poetik metaforalar, okkazonal birliklar, noodatiy bog'lanishlarning shoir ijodiy tafakkuri mahsuli ekanligi, bunday birliklarning gnoseologik tamoyillar asosida tadqiq etilishi, muallif ongida reprezentatsiyalangan axborotning kommukantlarning hissiyotiga ta'sir etishi kabi masalalarni tahlil qilish, til va tafakkur munosabatini kognitiv poetika doirasida yoritish dunyo tilshunosligi oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanmoqda. Bu vazifalarni amaliy hal etish natijasi esa XX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan ijodkorlar asarlari tilining tahlilida yangi ilmiy yutuqlarga erishish imkonini bermoqda.

Dunyo tilshunosligida til va tafakkur munosabati talqiniga lingvokognitiv aspektida yondashuv XX asrning ikkinchi yarmiga oid poetik matnlar tilidagi konseptlar, metaforalar, okkazonal birliklar, noodatiy bog'lanishlarning funksional-semantik, stilistik xususiyatlariga xos qonuniyatlarni yoritishda fundamental asos bo'lmoqda. Poetik matnlarda ijodiy tafakkurning reprezentatsiyalashuvini, lingvistik birliklar doirasidagi ma'naviy munosabatlarni tilning muayyan davriga xos olamning individual lisoniy manzarasi bilan bog'liq holatda tavsiflash, lisoniy birliklarga xos kognitiv jarayonlarni yangi ilmiy paradigmalarda asosida mukammal tahlil etish bilangina muammoning nazariy jihatlarini to'liq asoslash mumkin ekanligi yaqqolroq aniqlanmoqda.

O'zbek tilshunosligida XX asrning ikkinchi yarmi yozma manbalari tili bilan bog'liq tadqiqotlar yaratilgan, bu davr tilining leksik-semantik, morfologik, sintaktik xususiyatlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. "O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash"<sup>1</sup> zarurligi XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek adabiyoti ijodkorlarining bebaho ma'naviy merosini tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganishga asos bo'lmoqda. O'zbek tilshunosligida Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf, Faxriyor kabi ijodkorlar asarlari yuzasidan ayrim ilmiy manbalar yaratilganiga qaramay, bu ijodkorlar asarlari poetik tafakkurning reprezentatsiyalashuvi jihatidan maxsus o'rganilmagan. XX asrning ikkinchi yarmida ijod qilgan shoirlarimiz asallarini o'rganish o'zbek xalqining milliy-

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son farmoni. Manba: <https://lex.uz/docs/5058351> (murojaat sanasi: 10.05.2024).

madaniy, ijtimoiy-siyosiy turmush tarzi, olamning lisoniy manzarasi haqida to‘laonli tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari; 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4779-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Dissertatsiyaning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyoti ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Dunyo tilshunosligida nutqning linvopoetik tadqiqi bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar belgilanib, poetik nutq tahlilida gaplarning bo‘laklanishiga mazmuniy yondashuvlar; poetik nutq tarjimashunosligi; poetik idiolektda sintaktik qurilmalar tadqiqi; poetik nutqda ekspressivlik va uni yuzaga chiqaruvchi vositalarni o‘rganish; poetik nutqda shakl va mazmun mutanosibligini kognitiv tadqiqotlar doirasida yoritish; poetik onomastikaning leksik-semantik va stilistik tadqiqi; tarjimaga lingvokulturologik yondashuv va poetik asarlar tarjimalari muammolari kabi yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Poetik nutq masalalari uzoq yillar davomida V.V.Vinogradov, G.Y.Solganik, I.R.Galperin, G.V.Stepanov, V.M.Jirmunskiy, D.N.Shmelev, B.A.Larin, N.P.Nebrosina, Y.M.Lotman, Y.M.Trofimova, L.A.Xoreshko, N.S.Bolotnova, I.I.Kovtunova, Y.V.Kazarin, E.I.Koroleva, A.A.Lebedev, V.N.Patroyeva, V.V.Babaysevalarning ilmiy tadqiqot ishlarida yoritilgan<sup>2</sup>.

---

<sup>2</sup> Виноградов В.В. Язык и стиль русских писателей. – М.: Наука, 1990; Солганик Г.Я. Синтаксическая стилистика. – М.: Высшая школа, 1973; Солганик Г.Я. Стилистика текста. – М.: Флинта, 2024; Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981; Степанов Г.В. Язык. Литература. Поэтика. – М.: Наука, 1988; Жирмунский В.М. Рифма, её история и теория // Теория стиха. – Л.: Наука, 1975; Шмелев Д.Н. Слово и образ. – М.: Наука, 1964; Ларин Б.А. Эстетика слова и язык писателя. – Л.: Художественная литература, 1974; Небросина Н.П. Синтаксис стихотворной речи как предмет лингвопоэтического исследования: на материале английской и американской поэзии XVI-XX вв: Автореф. дисс. ...док. филол. наук. – Пермь. 1997; Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1998; Лотман Ю.М. Анализ поэтического текста. – Л.: Просвещение (Ленинградское отделение), 1972; Трофимова Ю.М. Лингвистика поэтического синтаксиса. – Саранск, 2015; Хорешко Л.А. Лингвокультурологический анализ поэтического текста и его передача на английский язык. – Белгород, 2018; Болотнова Н.С. Изучение идиостиля в современной коммуникативной стилистике художественного

Bugungi kunga qadar tilning estetik funksiyasiga doir juda ko‘plab ilmiy izlanishlar mahsuli o‘laroq, stilistikaga oid bir qator darslik va qo‘llanmalar, uslubiy vositalarni tadqiq etishga bag‘ishlangan qator tadqiqotlar<sup>3</sup> yuzaga kelgan. Shuningdek, Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf, Faxriyor kabi ijodkorlar asarlari yuzasidan ham ayrim tadqiqotlar yaratilgan<sup>4</sup>. Lekin shunga qaramay, poetik tafakkurning lisoniy reprezentatsiyalashuvi XX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf, Faxriyor kabi ijodkorlar asarlari asosida monografik planda o‘rganilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Tadqiqot Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Antropotsentrik tilshunoslik muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi** poetik tafakkurning lisoniy reprezentatsiyalashuvini XX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf, Faxriyor kabi ijodkorlar asarlari asosida tadqiq etishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

olaning lisoniy manzarasi, olamning individual lisoniy manzarasi, til va tafakkur munosabati, poetik matn, kognitiv poetika yuzasidan jahon va o‘zbek tilshunosligida amalga oshirilgan tadqiqotlarni umumlashtirish va tahlil qilish, kognitiv poetikaga doir lingvistik tadqiq muammolarini belgilash;

---

средства. – М., 2004; Ковтунова И.И. Поэтический синтаксис. – М.: Наука, 1986; Казарин Ю.В. Поэтический текст как система. – Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 1999; Королева Е.И. Экспрессивные грамматические средства языка в аспекте функционально-семантического поля (на материале современной британской беллетристики): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2016; Лебедев А.А. Поэтический синтаксис П.А.Вяземского: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Петрозаводск, 2016; Патроева В.Н. Типы и функции осложняющих конструкций в языке русской поэзии XVIII-XIX вв: Автореф. дисс. ...док. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2005; Бабайцева В.В. Читая стихи... (синтаксис и семантика) 2-изд. – М.: Флинта, 2016.

<sup>3</sup> Шомаксудов А. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент, 1974; Қўнғуров Р. Ўзбек тили стилистикасидан очерклар. – Самарқанд. 1975; Қўчқортоев И. Бадиий нутқ стилистикаси. –Тошкент: Фан, 1975; Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент. Фан, 1984; Мукаррамов М.Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976; Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977; Абдуллаева Л. Лексическая стилистика узбекской художественной литературы. – Ташкент: Фан, 1979; Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. –Тошкент: Фан, 1981; Қиличев Э. Бадиий тасвирнинг лексик воситалари. – Тошкент: Фан, 1982; Шомаксудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси –Тошкент: Фан, 1983; Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. – Тошкент: Фан, 1987; Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1990; Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992; Мамажонов А., Махмудов У. Услубий воситалар. – Фарғона, 1996; Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стиль. – Тошкент: Фан, 1988; Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. – Самарқанд, 1998; Қиличев Э. Матннинг лингвистик таҳлили. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2000; Ибрагимова Э.Ўзбек тилида ирония ва ироник мазмун ифодалаш усул ва воситалари: Филол. фан. номз. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2001; Йўлдошев М. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. – Тошкент. 2007; Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013; Дўсматов Х. Аския матни лингвостилистикаси. – Тошкент: Фан, 2015.

<sup>4</sup> Мирзаева Н. XX аср шеърятда метафорик образ муаммоси (Гарсиа Лорка ва Шавкат Раҳмон шеърят мисолида): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2006; Шадиёва Д.Ш. Муҳаммад Юсуф шеърят лингвопоэтикаси: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2007; Юнусова Д. Шавкат Раҳмон шеърятда метафорани ҳосил қилувчи лексик-грамматик воситалар тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. док. ...дисс. автореф. – Самарқанд, 2022; Юнусова Х. Визуал поэтик матнларнинг прагма-когнитив тадқиқи // Фарғона прагмалингвистика мактаби. Коллектив монография. II қисм. – Фарғона, 2022.

poetik matnlarning boshqa matn turlaridan farqli xususiyatlarini yoritish;  
poetik matnda lisoniy vositalarning funksiyalarini aniqlash;

poetik matnlarda shoir “men”ining aks etishini lisoniy dalillar asosida ko‘rsatish;

individual-muallif olamining tasviriga xos eng muhim tarkibiy qism hisoblangan badiiy konseptlarni *muhabbat, vaqt, tog‘, shamol* konseptlari asosida dalillash;

poetik tafakkurning lisoniy vositalar orqali ifodalanishini poetik metaforalar, okkazional va noodatiy birikmalar asosida yoritish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida XX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf, Faxriyor kabi ijodkorlarning she‘riy asarlaridan foydalanilgan.

**Tadqiqot predmetini** poetik tafakkurning reprezentatsiyalashuviga xizmat qiladigan lingvistik birliklar tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyoslash, zidlash, tavsiflash, tasniflash, statistik va komponent tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

olamning lisoniy va individual lisoniy manzarasi, til va tafakkur munosabati, poetik matn, kognitiv poetika yuzasidan jahon va o‘zbek tilshunosligida amalga oshirilgan tadqiqot ishlari umumlashtirilgan, poetik matnlarning boshqa matn turlaridan farqli xususiyatlari; individual lisoniy manzara alohida olingan shaxslarning kognitiv, mental, psixologik va lingvistik imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lishi; poetik matnlarda reprezentativ, referentativ, konativ, estetik, ekspressiv-informativ, emotiv kabi funksiyalar faol qo‘llanishi va bevosita bu funksiyalar poetik tafakkurning lisoniy reprezentatsiyalashuvida muhim ahamiyat kasb etishi aniqlangan;

poetik matnlarda shoir “men”ining aks etishi, ya’ni Faxriyor ijodida o‘xshatishlar, o‘ziga xos she‘riy uslub yetakchilik qilishi; Shavkat Rahmon ijodida lisoniy vositalarning o‘z tagma’nosiga egaligi; Rauf Parfi uslubiga xos xususiyat uning ijodida tovushlar, so‘zlar, jumlar takroriga, bo‘g‘inlar uyg‘unligiga, dunyoni ranglar vositasida ifodalashga e’tibor qaratilgani pragmatik va kognitiv asoslarda isbotlangan;

individual-muallif olamining tasviriga xos eng muhim tarkibiy qism – badiiy konsept yozuvchi yoki shoir ongida uning tajribasi, voqelik haqidagi bilimi, o‘ziga xos his-tuyg‘ulari, g‘oyalari, hayotiy ma’lumotlari asosida shakllanadigan ma’lum bir psixik borliq sifatida namoyon bo‘lishi ijodkorlar asarlaridagi *muhabbat, vaqt, tog‘, shamol* konseptlari asosida dalillangan;

Shavkat Rahmon, Rauf Parfi, Muhammad Yusuf va Faxriyor asarlarida qo‘llangan poetik metaforalar, okkazional va noodatiy birikmalar zamonaviy lingvistik ilmiy-nazariy va amaliy qarashlar asosida tahlil qilingan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

poetik metaforalar, okkazional birliklar, noodatiy bog‘lanishlarning shoir ijodiy tafakkuri mahsuli ekanligi, bunday birliklarning gnoseologik tamoyillar asosida tadqiq etilishi, muallif ongida reprezentatsiyalangan axborotning lisoniy

birlik hosil bo'lish jarayonidagi ishtiroki, ularning kommukantlarning hissiyotiga ta'sir etishi yuzasidan olingan xulosalar badiiy asar ekspressivligini ta'minlash, poetik matnlarga xos lisoniy xususiyatlarni aniqlashga imkon berishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan;

tadqiqotdan tilshunoslikda leksikologiya, lingvopoetika, uslubshunoslik va kognitologiyadagi leksik-semantik, funksional-stilistik, lingvokognitiv jarayonlarni yanada chuqurroq o'rganishda foydalanish mumkinligi ko'rsatilgan;

dissertatsiyada tadqiq qilingan materiallar XX asrning ikkinchi yarmiga oid o'zbek adabiy tilining poetik imkoniyatlari xususida ma'lumot berishda, darslik va o'quv qo'llanmalarining mukammallashuvida hamda kognitologiya muammolarini hal qilishda nazariy manba bo'lib xizmat qilishi belgilangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** olib chiqilayotgan masalalarning aniqligi, g'oyalarning lingvistik qonuniyatlarga mosligi, tadqiqot jarayonida olib borilgan tahlillarning nazariy asosga ega ekanligi, muammoni tadqiq etishda ilmiy-nazariy manbalarga tayanilganligi, erishilgan ilmiy natijalarning amaliyotga tatbiq etilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati XX asr o'zbek she'riyati misolida poetik tafakkurning lisoniy reprezentatsiyalashuvi haqidagi qarashlar individual uslubning xususiyatlari haqida keng qamrovli ma'lumotlar berishi, kognitiv poetika yo'nalishini yangi nazariy ma'lumotlar bilan boyitishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqot natijalari uslubshunoslik, poetik nutq masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari, darsliklar, monografiyalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratishda foydalanish uchun nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalaridan oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlarida bakalavriat yo'nalishi bo'yicha ta'lim oluvchilarga "Hozirgi o'zbek adabiy tili", "Badiiy matn tahlili", "Uslubshunoslik" hamda lingvistika (o'zbek tili) magistratura yo'nalishida tanlov fanlarini o'qitishda keng foydalanish tavsiya etiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** XX asr o'zbek shoirlari asarlarining lingvokognitiv tadqiqi asosida:

olamning lisoniy va individual lisoniy manzarasi, til va tafakkur munosabati, poetik matn, kognitiv poetika yuzasidan jahon va o'zbek tilshunosligida amalga oshirilgan tadqiqot ishlari umumlashtirilganligi, poetik matnlarning boshqa matn turlaridan farqli xususiyatlari; individual lisoniy manzara alohida olingan shaxslarning kognitiv, mental, psixologik va lingvistik imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lishi; poetik matnlarda reprezentativ, referentativ, konativ, estetik, ekspressiv-informativ, emotiv kabi funksiyalar faol qo'llanishi va bevosita bu funksiyalar poetik tafakkurning lisoniy reprezentatsiyalashuvida muhim ahamiyat kasb etishiga doir xulosa va tavsiyalardan 2019-2021-yillarda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan I-OT-2019-42 "O'zbek va ingliz tillarining elektron (Inson qiyofasi, fe'l atvori, tabiat va milliy timsollar tasviri) poetik lug'atini yaratish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti

universitetining 2024-yil 11-iyuldagi 04/1-1816-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida yaratilgan elektron lug'at kognitiv poetikaga oid ma'lumotlar va zaruriy tushunchalar bilan boyitilgan;

poetik matnlarda shoir "men"ning aks etishi, ya'ni Faxriyor ijodida o'xshatishlar, o'ziga xos she'riy uslub yetakchilik qilishi; Shavkat Rahmon ijodida lisoniy vositalarning o'z tagma'nosiga egaligi; Rauf Parfi uslubiga xos xususiyat uning ijodida tovushlar, so'zlar, jumlar takroriga, bo'g'inlar uyg'unligiga, dunyoni ranglar vositasida ifodalashga e'tibor qaratilgani pragmatik va kognitiv asoslarda isbotlanganligiga oid xulosalardan 2021-2023-yillarda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan IL-402104474 "bolalaradabiyoti.uz" elektron platforma va uning mobil ilovasini yaratishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 11-iyuldagi 04/1-1817-son ma'lumotnomasi). Natijada tadqiqot materiallari loyiha doirasida yaratilgan elektron platforma va uning mobil ilovasining yangi ma'lumotlar bilan boyishiga xizmat qilgan;

individual-muallif olamining tasviriga xos eng muhim tarkibiy qism – badiiy konsept yozuvchi yoki shoir ongida uning tajribasi, voqelik haqidagi bilimi, o'ziga xos his-tuyg'ulari, g'oyalari, hayotiy ma'lumotlari asosida shakllanadigan ma'lum bir psixik borliq sifatida namoyon bo'lishi ijodkorlar asarlaridagi *muhabbat, vaqt, tog', shamol* konseptlari asosida dalillanganligiga oid xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali" davlat muassasasining 2024-yil 17-iyul kungi "Bedorlik" nomli eshittirishining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2024-yil 8-avgustdagi 04-36-924-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur eshittirish yosh avlodni xalqimizning buyuk moddiy va ma'naviy merosiga hurmat, ona tilimizga muhabbat ruhida tarbiyalashga, ularning bilimlarini oshirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarning aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 5 ta respublika hamda 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, ulardan 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Tadqiqotning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 145 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan,

tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya tushilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Lisoniy tafakkurning reprezentatsiyalashuvi haqida nazariy qarashlar”** deb nomlangan bo'lib, uning birinchi paragrafi **“Til va tafakkur masalasi. Kognitiv poetika”** deb nomlangan. Unda olamning lisoniy manzarasi, til va tafakkur masalasi, til funksiyalari, tilning reprezentativ funksiyasi haqidagi nazariy qarashlar, kognitiv poetika, kognitiv lingvistika kabi tushuncha va xususiyatlar haqida fikr yuritilgan. **“Tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning shakllanishi til egasi – so'zlovchi shaxs omilini tadqiq etish bilan bog'liqdir”**<sup>5</sup>. Jahon tilshunosligida XX asr oxiridan boshlab tilni antropotsentrik yondashuv, ya'ni o'z sohibi, uning milliy mentaliteti, milliy madaniyati bilan birga tadqiq etish barqarorlashdi. Natijada antropotsentrizmning pragmalingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya kabi yo'nalishlari vujudga keldi. Til va tafakkur o'rtasidagi munosabatlarga **“shaxs”** tushunchasining kirib kelishi, o'z navbatida, olamning lisoniy konseptual manzarasini til funksiyalari bo'yicha tahlilga tortish imkoniyatini yaratib beribgina qolmasdan, shaxsning o'ziga xos idrok xususiyatlarini o'rganish imkonini yaratdi.

Olamni anglash, tushunish va tafakkur qilish universal hodisa sifatida baholanmaydi. Ma'lum shaxslar guruhi uchun xos bo'lgan tafakkur milliy tafakkur yoki biror xalqqa, jamoaga xos tafakkur shaklida namoyon bo'ladi. Insonlar olamni turlicha ko'radilar, voqea-hodisalar mohiyatini turfa holda tafakkur qiladilar. Bunda shaxslarga xos tafakkur, dunyoqarash darajasi ahamiyatli. So'nggi yillarda tilshunoslikda vujudga kelgan kognitiv lingvistika, lingvokulturologiya kabi antropotsentrik paradigma yo'nalishlarida olib borilgan izlanishlar asosida til va tafakkurning o'zaro bog'liqligi, uyg'unligi, shu bilan birga, alohida mustaqil hodisalar ekanligi tadqiq qilinmoqda. **“Kognitiv”**, ya'ni bilish bilan bog'liq atama ham mohiyatan fanlararo xususiyatga ega. Kognitiv tilshunoslik tilni bilish jarayonlarining ajralmas qismi sifatida qaraydigan tilshunoslikning bir tarmog'idir. Bu sohada til insonning tajribalari va idroki, fikrlashi asosida aqliy qobiliyatlariga ta'sir qilishiga e'tibor qaratiladi. Kognitiv lingvistikaga xos **“olamning lisoniy manzarasi”** tushunchasi til insonning dunyo haqidagi tushunchalarni qanday shakllantirishini tushunish uchun asos yaratadi.

Kognitiv lingvistika XX asrning 70-80-yillarida J.Lakoff, R.Langaker, L.Talmi kabi tilshunoslarning ilmiy-nazariy qarashlari asosida vujudga keldi. Tilni rasmiy qoidalar tizimi sifatida qaraydigan an'anaviy qarashlardan farqli o'laroq, kognitiv tilshunoslik tilning inson bilishi va konseptualizatsiyasi bilan chuqur bog'langanligini ta'kidlaydi.

Kognitiv tilshunoslik uchun xos bo'lgan terminlardan biri **“olamning lisoniy manzarasi”** hisoblanadi. Ushbu ilmiy termin L.Vaysgerber tomonidan quyidagicha ta'riflanadi: **“Olamning lisoniy manzarasi – bu, barcha lisoniy imkoniyatlarning majmuasi, ma'lum bir o'ziga xos madaniyat ruhi, til egalaridan iborat jamiyatning mentaliteti. U til imkoniyatlari va vazifalarini ko'rsatib beradi va ayni vaqtda,**

---

<sup>5</sup> Худойберганава Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент, 2013. – Б.3.

tilning kelajakdagi holati haqida ilmiy bashorat beradi; olamning lisoniy manzarasi tildagi eng sodda jarayonlardan boshlab tilning o'ziga xos xarakterida namoyon bo'luvchi murakkab jihatlarni qamrab oladi, hech bir lingvistik jarayon undan chetda qolmaydi; olamning lisoniy manzarasi tarixiy taraqqiyot davomida o'zgarishlarga uchraydi; olamning lisoniy manzarasi lingvistik hodisa bo'lish bilan bir qatorda, ayni vaqtda madaniy hodisa ham hisoblanadi; olamning lisoniy manzarasi bir avlod vakili tomonidan yaratiladi, ikkinchi avlod vakili tomonidan boyitiladi, avloddan avlodga meros sifatida o'tadi; olamning lisoniy manzarasi umummadaniy hodisa, ya'ni barcha xalqlar taraqqiyotning turli bosqichlarida bu jarayonni turlicha bosib o'tadilar"<sup>6</sup>. "Olamning lisoniy manzarasi" til insonning voqelikni idrok qilishi, shuningdek, uning tilda qanday ifodalanishini bildiradi. Har bir tilda so'zlashuvchilar o'sha tilga xos lisoniy vositalardan foydalangan holda dunyoni idrok etadilar va tafakkurlarida aks etgan g'oyalarni verballashtiradilar. V.Maslovaning ta'rificha, olamning lisoniy manzarasi insonning butun ma'naviy faoliyatining natijasi bo'lgan dunyoning yaxlit, global qiyofasi, u insonning dunyo bilan barcha aloqalari va u haqidagi g'oyalari jarayonida paydo bo'ladi<sup>7</sup>.

Ma'lumki, insonlar jamoa tarzida muloqot qilar ekanlar, ularning turmush tarzi, madaniyati bir-biriga uyqash, bir-biriga mutanosib bo'ladi. Shunga muvofiq tarzda insonlarga xos tafakkur darajasi ham yaqin va o'xshash bo'lishi tabiiy. Bu orqali ma'lum xalqqa xos milliy tafakkur shakllanadi. A.Potebnyaning fikricha, poeziyada fikrlar lisoniy belgilar, xususan, so'z yordamida ifoda etiladi, ya'ni bunda shoir tafakkuridagi konseptlar lisoniy vositalar yordamida verballashadi<sup>8</sup>.

Rus tilshunosligida "kognitiv poetika" alohida tarmoqlardan biri ekani qayd etiladi: "Fan nomidan ko'rinib turibdiki, kognitiv poetika gibrid xususiyatga ega. J.Fokonye va M.Tyornerning konseptual integratsiya nazariyasining terminlar tizimidan foydalangan holda, kognitiv poetikani ikkita "kirish fazosi" asosida shakllangan "intergate" (blend – aralashma) sifatida tavsiflash mumkin, ulardan birinchisi filologiya, ikkinchisi esa kognitiv fanlardan biri, ko'pincha kognitiv tilshunoslikdir"<sup>9</sup>. Demak, kognitiv poetika kognitologiya, tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalari bir nuqtada jamlangan yo'nalish bo'lib, adabiyotshunoslar muallif kognitiv olamining badiiy asarlarda aks etishi xususiyatlarini o'rganish bilan shug'ullansalar, tilshunoslar ana shu aks etishda qo'llaniluvchi lisoniy va uslubiy vositalarning xususiyatlarini tahlil qiladilar. Shunga ko'ra, kognitiv poetikani tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganishda poetik tafakkurning lisoniy reprezentatsiyalashuvi masalasi ustuvor sanaladi. Kognitiv poetika poetik matnning kognitiv xususiyatlarini, shoir tomonidan qo'llangan fikrlar, konseptlarning verballashuvi masalasini tadqiq qiladi. Shoir individual

---

<sup>6</sup> Bu haqda qarang: Абдуллаева Р. Оламнинг лисоний манзараси // FarDU. Ilmiy xabarlar. 2018. – №5. – Б.133.

<sup>7</sup> Маслова В. Когнитивная лингвистика: учеб. пособие. 3-е изд., перерпб. и доп. – Минск: ТетраСистемс, 2008. –272 с.

<sup>8</sup> Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – М.: Искусство, 1976. – С.333.

<sup>9</sup> Nechaeva K., Makhortova V. The poetic picture of the world of Sophia de Mello: Cognitive strategy and organizing principles. Izvestiya of Saratov University. New Series. Series: Philology. Journalism. 2021. – P.14-19. 10.18500/1817-7115-2021-21-1-14-19.

tafakkurining poetik matnda aks etishi, ya'ni reprezentatsiyalashuvi masalasi aynan kognitiv poetikaning o'rganish obyektlaridan biri sanaladi.

Shaxs individual lisoniy manzarasi olamni individual tarzda qabul qilish, individual tarzda aks ettirish, ya'ni reprezentatsiya xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Shu asnoda tilshunoslikda muallif tafakkurining reprezentatsiyasini bildiruvchi "poetik tafakkur", "olamning poetik manzarasi"<sup>10</sup>, "olamning badiiy manzarasi" kabi terminlar paydo bo'ldi.

Individual lisoniy manzara, yuqorida ta'kidlanganidek, alohida olingan shaxslarning kognitiv, mental, psixologik va lingvistik imkoniyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Shoir va yozuvchilar o'z ijod mahsullari yordamida individual lisoniy manzaralarini namoyon etadilar. Bu namoyon etish oddiy shaxs individual lisoniy manzarasining aks ettirilishidan farqlanadi. Poetik tafakkurning aks etishi orqali shoirlar o'z qarashlarini ommaga taqdim qiladilar, kitobxonga ta'sir o'tkazadilar. Shu sababdan ham kognitiv tilshunoslik uchun individual lisoniy manzaraning bir ko'rinishi bo'lgan "olamning individual poetik manzarasi" tushunchasi ahamiyatli va tadqiq qilish uchun asoslidir.

Badiiy konsept tushunchasi ma'lum bilim turlari bilan bog'liq bo'lgan boshqa tushunchalar (kundalik, maishiy konseptlar, diniy konseptlar, mifologik konseptlar, ilmiy (maxsus) konseptlar, falsafiy konseptlar) bilan bir qatorda turadi. Ularning mazmun jihatidan farqlari insonning hayotning u yoki bu sohasi bilan o'zaro munosabati haqidagi g'oyalariga asoslanadigan bilimlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi, buning natijasida u yoki bu turdagi konseptlar shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, badiiy konsept ham bilimning operativ birligi bo'lib, oddiy emas, balki badiiy bo'lib, unda poetik til prizmasi orqali insonning dunyo bilan o'zaro munosabati va dunyo prizmasi orqali she'riy til idrok etiladi va ifodalanadi<sup>11</sup>.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi "O'zbek she'riy matnlarida lisoniy tafakkur ifodasi" deb nomlangan. Ushbu paragrafda matn tilshunosligi, xususan, matn haqidagi qarashlar, she'riy matn, poetik matn, poetika, poetik matnda lisoniy tafakkur ifodasi kabi masalalar yoritilgan. XX asr tilshunosligi yangi yo'nalishlar, yangi tarmoqlar vujudga kelgani bilan ahamiyatlidir. Murakkab sintaktik butunliklarni o'rganuvchi matn tilshunosligi ham XX asrning 50-yillaridan boshlab shakllana boshladi. Matn tilshunosligida asosiy e'tibor matnlarning lingvistik tadqiqi masalasiga qaratiladi. Turli xildagi matnlar matn tilshunosligi yo'nalishining o'rganish obyekti sanaladi. Matn to'g'risida turli qarashlar mavjud bo'lib, ularning barchasida ham matnning og'zaki va yozma nutq shakli ekanligi ta'kidlanadi, matn nutqiy faoliyat mahsuli sifatida baholanadi. Mavjud adabiyotlarda matn quyidagicha ta'riflanadi:

1. Matn – bu, eng avvalo, nutq shaklidir, u og'zaki va yozma holda ifoda etilishi mumkin. 2. Matn – predmet, voqea, hodisalar haqidagi ma'lumot, xabarlar

<sup>10</sup> Маслова Ж. Поэтическая картина мира и ее репрезентация в языке: Дисс. ... док. филол. наук. – Тамбов, 2011.

<sup>11</sup> Шарандин А. Когнитивная поэтика в системном описании поэтического языка // <https://cyberleninka.ru/article/n/kognitivnaya-poetika-v-sistemnom-opisanii-poeticheskogo-yazyka> (murojaat sanasi: 5.05.2023).

yig'indisidir. 3. Matn – mazmuniy va struktural tugallikka ega bo'lgan yirik sintaktik qurilmadir. 4. Matn – biror muallifning nutqidir. 5. Matn – nutq muallifining voqelikka bo'lgan turli munosabatidir. 6. Matn – tahlil qilish uchun tavsiya etilgan qo'lyozma, nashr qilingan asar yoki ularning ayrim qismlari. 7. Matn – mazmunan ketma-ketlilik xarakteriga ega bo'lgan bir necha sodda yoki qo'shma gaplar yig'indisidir<sup>12</sup>. M.Yo'ldoshev tasnifiga ko'ra, matnlarni hajm belgisi, ifoda maqsadi va mazmun-mohiyatiga qarab turli tiplarga ajratish mumkin. Olim matnlarni hajm nuqtayi nazaridan tasniflar ekan, ularni minimal matn va maksimal matnlarga ajratadi. Matn uslub jihatidan ilmiy, badiiy, rasmiy, ommabop kabilarga bo'linsa, mazmun ifodasiga, maqsadiga ko'ra quyidagilarga ajratiladi: hikoya mazmunli matnlar, tasviriy matnlar, izoh mazmunli matnlar, didaktik matnlar, xabar mazmunli matnlar, buyruq mazmunli matnlar, hissiy ifoda mazmunli matnlar<sup>13</sup>. Matnlarda muallif shaxsi ustuvorligi seziladi, chunki tilshunos olim Y.N.Karaulov aytganidek, matn ortida lisoniy tizimlarni egallagan muayyan shaxs – muallif turadi<sup>14</sup>.

Mavjud adabiyotlarda *poetika* tushunchasi turlicha tavsiflanadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *poetika* 1) adabiyot nazariyasining badiiy asarlar tuzilishini uning izchil va tarixiy qonuniyatlari asosida o‘rganadigan bo‘limi; badiiy asarlarda qo‘llanuvchi ifoda vositalari tizimi; 2) adabiyotdagi yoki ayrim shoir, yozuvchiga xos biron-bir yo‘nalishning badiiy tamoyillari va xususiyatlari tizimi ekanligi aytilsa<sup>15</sup>, “O‘zbek milliy ensiklopediyasi”da poetikaning vazifasi torroq ko‘rsatilgan va u “badiiy asarlarda ifoda vositalari tizimi haqidagi fan” deya ta’riflangan<sup>16</sup>.

Poetik matnga xos xususiyatlardan biri uning subyektivligidir, ya’ni poetik matnda muallifning subyektiv bilimi, tajribasi, dunyoqarashi aks etadi. Shu jihatdan poetik matnlarning kognitiv xususiyatlarini, ijodkor tafakkurining reprezentatsiyasi masalasini tadqiq qilish bugungi zamonaviy tilshunoslikning yetakchi masalalaridan sanaladi. Bu haqida rus tilshunosi J.Maslova shunday degan edi: “Bizning fikrimizcha, poetik matnni kognitiv tahlil qilish dolzarbdir. Bunday matn she’riy nutqning tasviriyligi, qobiliyati va ifodaliligi tufayli o‘quvchi tomonidan ijodiy “dekodlash”ga muhtoj”<sup>17</sup>. Poetik matnni “dekodlash”, ya’ni uning asosiy g‘oyasini tushuna olish, muallifning maqsadlarini ilg‘ay olish, poetik matnda qo‘llangan lisoniy vositalarning qo‘llanilish asoslarini anglay olish kitobxon uchun doim ham oson kechmaydi. Shu sababdan shoir shunday lisoniy ifodalarni tanlashi kerakki, ularni “dekodlash”, ya’ni tushunish qulay bo‘lishi

<sup>12</sup> Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С.56.

<sup>13</sup> Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.12-26.

<sup>14</sup> Караулов Ю.Н. Русская языковая личность и задача её изучения // Язык и личность. – М.: Наука, 1987. – С.3-8.

<sup>15</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. 3- jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – Б.762-763.

<sup>16</sup> Ўзбек миллий энциклопедияси. П харфи. – Б.375 // <https://ziyouz.uz/kutubxona/ziyouz/lugatlar/> (murojaat sanasi: 17.09.2023).

<sup>17</sup> Маслова Ж. Поэтический текст как объект исследования в рамках когнитивного подхода // <https://cyberleninka.ru/article/n/lingvokognitivnyy-analiz-poeticheskogo-teksta-trudnosti-i-perspektivy> (murojaat sanasi: 7.01.2024)

lozim. Bu jihat ham kognitiv poetika tomonidan tadqiq qilinadigan masalalardan biridir. Lisoniy tafakkur tahlili poetik matnning mazmuniy va uslubiy xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Z.Akbarova olamning lisoniy manzarasi aks etishida dunyoqarash alohida ahamiyatli ekanini qayd etadi: “Dunyoqarash, milliy mentalitet olamni modellashtirishning asosini tashkil qiladi. Zero, inson borliqni qanday tasavvur qilsa, shunday munosabat bildiradi. Jamiyatda bir-biriga yaqin dunyoqarash bo‘lishi mumkin, ammo biri ikkinchisini aynan takrorlaydigani topilmaydi, buni badiiy asar qahramonlari nutqi, shaxsiyatini ifoda qiluvchi matnlardan ham bemaolol anglash mumkin”<sup>18</sup>.

Bobning uchinchi paragrafi “Poetik matnda lisoniy vositalarning funksiyalari” deb nomlanadi. Bunda, asosan, til funksiyalari, til reprezentativ funksiyasining ifodalanishi, poetik matnlar uchun xos bo‘lgan til funksiyalari haqida fikr yuritiladi.

Tilning funksiyalari to‘g‘risida yaratilgan model va tasniflarning ko‘pligi va xilma-xilligi<sup>19</sup> tilning betakror ijtimoiy hodisa ekanligidan dalolat beradi. Til insoniyat hayotining ajralmas bir qismidir. Tasniflarning deyarli barchasida reprezentativ, apellyativ va ekspressiv funksiyalar asosiy funksiyalar sifatida berilgan bo‘lib, tilning boshqa funksiyalari shu funksiyalarni namoyon etish uchun xizmat qiladi.

Tilning ekspressiv funksiyasi yordamida his-tuyg‘ular ifoda etiladi, so‘zlovchi o‘z fikrlarini, hislarini shu funktsiya yordamida bayon etadi. Tilning dastlabki funksiyasi ifoda funksiyasi bo‘lgani sababli ham so‘zlovchi bilan aloqada nutq – simptomdir.

Apellyativ yoki konativ vazifa orqali ikkinchi shaxsga murojaat qilinadi. Nutq signal sifatida qabul qiluvchiga yetkaziladi.

Tilning reprezentativ vazifasi esa xabar sifatida qaraladi. Tilning reprezentativ funksiyasi borliq haqidagi tasavvurlarning ongimizda voqelanishidir. Nutqning simvol sifatida keltirilishi ham shundan. Nutq predmet bilan aloqasida simvol ko‘rinishida ongimizda voqelanadi.

Til obyektiv borliqni anglash, hodisalarning mohiyatini tushunish uchun xizmat qilib, sodir bo‘layotgan voqealarning ongimizda reprezentatsiyalashuvini ta‘minlaydi. Bir xil hodisa bir necha shaxs tomonidan turli ko‘rinishlarda reprezentatsiya qilinishi, anglanishi mumkin. Bu insonning tasavvuri, dunyoqarashi bilan ham bog‘liq. Lekin reprezentatsiya jarayonida til yetakchilik qilib, o‘zining reprezentativ funksiyasini namoyon etadi. Lisoniy vositalar orqali ifodalangan predmet, narsa va hodisaning inson ongida tasavvur qilinishi yoki anglanishi tilning reprezentativ funksiyasi sanaladi. Ijodkor tafakkurining ko‘z ilg‘amas inja nozikliklari borki, bu nozikliklar za‘mirida muallifning individual hayot tarzi, milliyligi, shaxsiyati yashiringan bo‘ladi.

---

<sup>18</sup> Akbarova Z. O‘lam lisoniy manzarasi shakllanishi kognitiv tuzilish: Filol. fan. d.ri (DSc) ...diss. avtorref. – Farg‘ona. 2021. – B.33.

<sup>19</sup> Watzlawick P., Beavin J.H., Jackson D.D. Pragmatics of human communication: A study of interactional patterns, pathologies, and paradoxes. – Norton, 1967; Norrick N.R. The lexicalization of pragmatic functions // Linguistics 1979, v.17. – P.671-685; Бюлер К. Теория языка. Репрезентативная функция языка. – М.: Прогресс, 2000; Мартине А. Основы общей лингвистики [в:] Новое в лингвистике. – М., 2004.

Tilning representativ funksiyasi tasavvur, tafakkur, va, o'z navbatida, individual nisbatlash va o'xshatish vositasida yuzaga chiqadi. Rerezentatsiyalashuv ijodkorning individual ifoda usuli sanalib, adresant va adresat o'rtasida namoyon bo'ladigan hodisa hisoblanadi.

Har bir millatning ijodkorida o'sha millatning ruhi bo'ladi. Xalqning dardi, milliy mentaliteti poetik matnlarda ham o'z aksini topadi. Muallif she'riy matn orqali ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildiradi.

Nutqni ta'sirchan qilish uchun ekspressiv, estetik funksiyalar yordamga kelar ekan, so'zlovchining ma'lim bir predmetga shu ta'sirchan so'zlar orqali havola qilishi reprezentativ funksiyaning yuzaga chiqishiga sabab bo'ladi. O'z navbatida, til funksiyalarining deyarli barchasi bir-birini taqozo qiladi. Poetik matn uchun zarur bo'lgan lingvistik funksiyalarning ayrimlari (apellyativ, kommunikativ, emotiv, ekspressiv-informativ, estetik va b.) representativ funksiya asosida shakllana olishini aytishimiz mumkin. Sababi, representativ funksiyaning asosiy vazifasi havola qilingan narsani kitobxon tafakkurida idrok etishga qaratilgan bo'ladi. Borliqdagi har bir predmetni ongimiz turli omillarga ajratadi va bu jarayon ongimizda sintezlanib lisoniy vositalar yordamida reprezentatsiyalanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Olamning individual lisoniy manzarasi va poetik matnlarda muallif fenomenining ifodalanishi”** deb nomlanadi. Bobning birinchi fasli “Poetik tafakkur va shoir “men”ining aks etishi” deb atalgan. Ushbu bobda ijodkorlar “ichki men”ining ifodalanishida individual uslub hukmronligi xususida fikrlar beriladi.

Shoirning tafakkuri til yordamida voqelanar ekan, o'z-o'zidan, shaxsiy bilim, saviya, dunyoqarash, shuningdek, shaxsiy xislatlar ham lisoniy vositalar yordamida tilda ifodalanadi, muallifning “men”i namoyon bo'ladi. Tayyor bo'lgan ijod namunasini tushunish uchun esa ma'lum darajada tafakkur uyg'unligi talab etiladi. Aynan Faxriyor she'rlarini tushunish uchun “alohida intellektual tayyorgarlik zarur”<sup>20</sup>ligi adabiyotshunos Q.Yo'ldoshev tomonidan e'tirof etiladi. Bunda shoirning fikrlash darajasiga mos ravishda tushunish uchun o'quvchidan ham ma'lum bilim, saviya talab qilinishi nazarda tutiladi. Bir she'rida shoir tovushlarni moylanmagan oshiq-moshiqqa o'xshatadi:

*Moylanmagan oshiq-moshiqday  
tovush g'ijirlaydi  
tishlar orasidan to'kilar  
shovullab... (Faxriyor)*

Oshiq-moshiq moylanmasa, uning orasiga havo kirib, g'ijirlagan yoqimsiz ovoz chiqaradi. Tishlar orasidan to'kilyotgan tovushni ana shu moylanmagan oshiq-moshiqning g'ijirlashiga o'xshatgan shoir bu she'r orqali sukutning afzalligini uqtirmoqchi bo'ladi. Oshiq-moshiqning g'ijirlashi odamning asabiga teguvchi, yoqimsiz tovush, xuddi shunday, tishlar orasidan behuda, noo'rin chiqqan tovush yoki so'zlar ham yoqimsiz bo'ladi va dilni xira qiladi. Undan ko'ra sukut saqlash ma'qulroq. Oshiq-moshiq yog'lab qo'yilsa, undan ovoz chiqmay

---

<sup>20</sup> <https://zarnews.uz/uz/post/faxriyor-sheriyati-biz-konikkan-ananaviy-lirikamizdan-farqli> (murojaat sanasi: 11.01.2023)

qoladi. Insonlar ham qanchalik donishmand va ilmi bo'lsalar, aqllari "moylangan" bo'lsa, behuda so'zlagandan ko'ra sukut saqlagan afzalroq ekanini yaxshi biladilar. Demak, muallif o'zgacha fikrlar, o'ziga xos tafakkurini til vositasida ifodalab, o'xshatish yarata olgan.

*Qalandar shamol ham suygan do'stimdir,  
Har bir chumolining qarindoshiman* (Shavkat Rahmon).

Shavkat Rahmon she'riyatida har bir so'z shunchaki qo'llanmaydi. "Kosa tagida nim kosa" tarzida so'zlarning ishtiroki individual tafakkur mahsuli hisoblanadi.

Nega shamol qalandarga o'xshatilyapti?

Sababi, qalandar bir joyda muqim yashamaydi. Daydi shamolga o'xshab beqaror bo'ladi. Shoirning suygan do'stlari ham shamolga o'xshaydi. Shamol qaysi tomonga essa, do'stlar ham shu tomonga yuradi. Bu bilan shoir o'zining og'riqli nuqtalarini aytib o'tadi. Ikkinchi misrada esa "har bir chumolining qarindoshiman", deya jar soladi. Shamol qayerda-yu, chumoli qayerda? Ijodkor o'zini chumoliga o'xshatilyapti. Shuningdek, chumoli – mehnatkashlikning ramzi. "Har bir samimiy, mehnatkash insonning do'stiman", demoqchi. "Men qalandar shamolni ham, chumolini ham yaxshi ko'raman", deyishida bir hikmat yashiringan. Hammani do'st deb biladiganlar hayotda juda ko'p pand yeyishadi. Ijodkorning hayot yo'llarini ham kuzatsangiz, anchayin dolg'ali bo'lganini sezish qiyin emas. Bunday tarzda o'z tafakkurini kitobxonga yetkazmoqchi bo'lgan ijodkor asarlari har doim chuqur tahlilga muhtoj bo'ladi va o'quvchidan alohida mahorat talab qiladi.

Rauf Parfi shaxsiyati o'zgacha inson va bu uning ijodida yaqqol aks etadi. Shoir tafakkuridagi voqeliklarni ko'p hollarda rang bildiruvchi so'zlar vositasida aks ettiradi:

*Seni bemor deb aytdi, oh,  
Bu so'z za'far, bu so'z qaro.  
Oh, dil ozor, oh dil siyoh,  
Dil yig'ladi motamsaro* (Rauf Parfi)

So'zga, yomon xabarga nisbat berishda shoir sariq va qora rangni ifodalovchi *za'far, qaro, siyoh* so'zlaridan foydalanadi. Rauf Parfi ijodida qora rangdan keng foydalanilganini kuzatamiz:

*Tanizorim igna uchinda,  
Ko'zlarimda porlar qora nur* (Rauf Parfi).

Aslida nur – rangsiz, nur – shaffof, biroq shoir "men"ning qay darajada azoblanganini ifodalash uchun nurni qora rang yordamida ifodalab, oksyumoron namunasini yarata olgan. Demak, Rauf Parfining tafakkurida nur ham qorayib ketishi mumkin, bu *qora nur* noodatiy bog'lanishi yordamida verballashgan.

Rauf Parfi o'zining poetik mahorati yuqoriligi va lingvistik zaxirasi boyligi bilan ajralib turadi. Uning she'riyatida so'zning rang-barangligi va tasviriy ifoda usullari keng qo'llanilishini kuzatish mumkin. Rauf Parfi poetik nutqida individual uslubni shakllantirishga xizmat qiladigan turli hodisalar, g'ayriodatiy bo'lgan ko'chimning barcha turlari, ijobiy va salbiy bo'yoqdorlikka ega bo'lgan, ekspressiv

- emotsionallikni yuzaga chiqaruvchi til birliklari qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin.

*Benom kataklarda benishon o‘ldirgan – silliq...  
Sirtmoq singari bo‘g‘zimni bo‘g‘ar  
Yig‘lagan yig‘i! (Rauf Parfi).*

Ushbu poetk matn noodatiy birlik asosida yaratilgan. Noodatiy birlik bo‘lishi bilan bir qatorda, matnga g‘alizlik yuklanmagan. Kitobxon bu holatga ijobiy yondashadi: “yig‘ining yig‘lashi” – yangi topilma. Ijodkorning o‘ziga xos bo‘lgan tasavvur tasviridir. Istalgan ikkita so‘zning qo‘shilishidan “gayriodatiy birikma” hosil bo‘lavermaydi. Buni ayta olish uchun bilimning o‘zi yetarli emas, eng asosiysi, individual mahorat ham kerak bo‘ladi. Rauf Parfi so‘zlarni ana shunday mahorat bilan qo‘llay bilgan ijodkor edi. Shuning uchun ham uning o‘lmas asarlari tilshunos va adabiyotshunoslar uchun ham muhim tadqiqot obyekti sifatida yangi-yangi qirralari bilan davrlar aro yashab kelmoqda.

Rauf Parfi ijodiga xos yana bir xususiyat unda o‘zakdosh so‘zlarning keng qo‘llanilishidir:

*Bolari so‘zdoni bir ajib,  
So‘zlardir peshonada to‘plangan ajin (Rauf Parfi).*

Misralarda keltirildan *so‘zdon, so‘zlar* leksik birliklari o‘zakdosh so‘zlar sifatida she’rda ohangdoshlikni ta’minlashga, ta’sirni kuchaytirishga xizmat qilgan.

*Jaranglaydi jarangsiz kumush.  
Derazamga uriladi qor,  
Qor singari oppoq bo‘ldi tush (Rauf Parfi).*

*Jaranglaydi, jarangsiz* so‘zlarining ketma-ket qo‘llanilishi orqali muallif o‘quvchi qulog‘iga *jarang* ovozi eshittirishni maqsad qiladi.

Rauf Parfi uslubiga xos yana bir xususiyat uning ijodida tovushlar, so‘zlar, jumlar takroriga, bo‘g‘inlar uyg‘unligiga e’tibor qaratilganidir. Shoir she’rlarining ta’sir kuchini aynan ohangdoshlik yordamida kuchaytirishga intiladi.

Bobning ikkinchi paragrafi “Poetik tafakkurga xos konseptlarning verballashuvi”ga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu paragrafda poetik matnlarda qo‘llangan *muhabbat, vaqt, tog‘, shamol* konseptlari tahlilga tortilgan. Individual-muallif olamining tasviriga xos eng muhim tarkibiy qism badiiy konsept bo‘lib, u yozuvchi yoki shoir ongida uning tajribasi, voqelik haqidagi bilimi, o‘ziga xos his-tuyg‘ulari, g‘oyalari, hayotiy ma’lumotlari asosida shakllanadigan ma’lum bir psixik borliqdir, u badiiy obrazlarni o‘z ichiga oladi va lisoniy vositalar bilan ifodalanadi. Individual muallif konseptlari faqat so‘z san’atkorining individual uslubidagi matnlarning butun majmuasi bilan ifodalanishi mumkin<sup>21</sup>.

Poetik matnlarda eng ko‘p murojaat qilinadigan konseptlardan biri “muhabbat” konseptidir. Qancha shoir, qancha ijodkor bo‘lsa, ularning konseptual olamida muhabbat tushunchasi o‘z holicha namoyon bo‘ladi. Albatta, bu namoyon bo‘lish lisoniy vositalar yordamida verballashib, unda shoirlarga xos

---

<sup>21</sup> Данькова Т. Концепт “любовь” и его словесное воплощение в индивидуальном стиле А.Ахматовой: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук// <https://www.dissercat.com/content/kontsept-lyubov-i-ego-slovesnoe-voploshchenie-v-individualnom-stile-akhmatovoi> (murojaat sanasi: 25.08.2023).

representatsiya aks etadi. Mumtoz adabiyot namunalaridan tortib zamonaviy o‘zbek she‘riyatigacha deyarli barcha shoir muhabbat mavzusiga murojaat qilib, uni o‘z tasavvuriga ko‘ra tasvir qilib keladi.

Muhammad Yusuf ijodida “muhabbat” konsepti dard, iztirob, tushunish, anglash qiyin bo‘lgan tuyg‘u sifatida verballashgan. Masalan:

*Sevgi – yomg‘ir bosgan  
Kitobdagi bayt (Muhammad Yusuf).*

Mazkur satrlarda sevgi “yomg‘ir bosgan kitobdagi bayt” tarzida ifodalangan. Kitob yomg‘ir ostida qolsa, yozuvlari o‘chib, uni o‘qish qiyinlashadi, yozuvlari butunlay ko‘rinmaydigan holga kelishi ham mumkin. Shoir bunday ta‘rif berish orqali sevgini ham tushunish, anglash qiyin bo‘lgan tuyg‘uga qiyos etadi.

*Ilk sevgi – eng baland shoxdagi olma,  
Men unga intildim, yetmadi qo‘lim (Muhammad Yusuf).*

Ushbu satrlarda esa ilk sevgi baland shoxdagi olmaga o‘xshatilgan. Odatda, eng baland shoxdagi, daraxtning eng tepasidagi olma chiroyli ko‘rinadi. Xuddi shunday, ilk sevgi ham go‘zal ko‘rinadigan, biroq qo‘l cho‘zsa, yeta olmaydigan hislar bilan bog‘lanadi.

*Muhabbat – chiroyli kapalak,  
qo‘rqaman sho‘rlikni tutgani.  
Kapalak quvganim yodimda,  
yodimda yo‘q ammo yetganim (Shavkat Rahmon).*

Shavkat Rahmon “muhabbat” konseptini tasvirlashda o‘zgacha o‘xshatishdan foydalanadi, bu tuyg‘uni chiroyli kapalak sifatida tasavvur qiladi. Shoir tafakkuricha, muhabbat quvib yetib bo‘lmaydigan kapalakka o‘xshaydi. Bu orqali muallif muhabbatga yetishish qiyinligini o‘z shaxsiy tajribasi – kapalakni quvib, unga sira yeta olmaganiga mengzab tasvirlaydi. Shoir konseptosferasida shaxsiy tajriba “muhabbat” konseptining shakllanishiga va til orqali verballashuviga asos bo‘lgan.

Rauf Parfi ham o‘ziga xos uslubga ega shoir sifatida “muhabbat” konseptiga murojaat qiladi:

*Og‘ushimda zangori sezgi,  
Kiprigimda suyuq hayajon.  
Ko‘zlarimda yumaloq sevgi,  
Salomatman men ham, onajon (Rauf Parfi).*

Muallif noodatiy bog‘lanish – *yumaloq sevgi* yordamida o‘ziga xos dunyoni ko‘rish va anglash jarayonlarini namoyon qiladi. Rauf Parfi dunyoni ko‘pincha ranglar, shakllar vositasida ko‘radi, shu sababdan ham “muhabbat” konsepti shoir ijodida yumaloq sevgi tarzida verballashadi. Yumaloq shakli burchaklarga ega emas, doim aylanib turuvchi shakl sifatida namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra sevgi – doimiy o‘zgarib turuvchi tuyg‘u. Bu esa yozuvchiga xos olamning individual manzarasi aks etishining yaqqol misolidir.

Faxriyor ijodida ham “muhabbat” konseptiga murojaat qilingan:

*Muhabbat – ko‘ksingga qamalgan havo,  
Chiqib ketolmaydi kabutar bo‘lib.*

*Mening vujudimda yamalgan yurak  
Zangli hasratlarga yotadi to'lib (Faxriyor).*

Biologik qonun-qoidalarga ko'ra, inson o'pkasiga, ko'ksiga kirgan havo chiqib ketishi kerak. Faxriyor muhabbatni o'pkaga kirib qolgan, lekin chiqib keta olmayotgan havoga mengzaydi. Muhabbat ham inson yuragiga kirsam, uni unutish, undan voz kechish qiyin bo'ladi. Shoir "muhabbat" konseptiga xos aynan shu jihatni verballashtirgan. Uning qalbiga ham muhabbat kirgan, lekin u muhabbatga yetisha olmagan, "yamalgan yuragi zangi hasratlarga to'lib yotsa" ham, bu tuyg'uni yulib ota olmaydi. Bu Faxriyor tafakkurida "muhabbat" konseptining aks etishi va lisoniy vositalar bilan reprezentatsiyalashuvining o'ziga xos ko'rinishini namoyon qiladi.

Insoniyat uchun muhim konseptlardan yana biri "vaqt" konseptidir. "Vaqt o'ta mavhum hodisadir, u ko'rinmaydi, eshitilmaydi, sezilmaydi. Vaqt siriga kirish til orqali amalga oshirilishi mumkin: tabiiy vaqt tajribasi natijasida ongda shakllangan vaqt va uning sifat mazmuni haqidagi tasavvurlar ramziy shakllarda gavdalanadi va til mulkiga aylanadi. Vaqtning lingvistik ifodasi, boshqa mavhum nomlar singari, so'zning keng ma'nosida metafora orqali amalga oshiriladi"<sup>22</sup>.

Rauf Parfi ijodida "vaqt" konseptining noodatiy tarzda verballashuvini kuzatamiz. Shoir bir she'rida vaqtni *bosh miyamizdan to'kilgan asrlar*, deb ta'riflansa, boshqa birida *devor* deya ataydi.

Shavkat Rahmon ijodida vaqt nisbatan salbiy bo'yoqlar bilan ifoda qilingan:

*Olmalarni ichi qora vaqt  
Olib qo'ydi qo'llarimizdan,  
Shundan beri chaqirtikanday  
Firoq o'sar yo'llarimizdan (Shavkat Rahmon).*

Shoir tafakkuriga ko'ra, vaqt – shafqatsiz, u insonlardan imkoniyatlarini, tuyg'ularini, baxtini olib qo'yadi. Sevgan yori bilan diydor ko'risha olmagan lirik qahramon bunda vaqtni aybor qiladi, firoq, ayriliqning asosiy sababi sifatida vaqt ko'rsatiladi. Bu Shavkat Rahmonga xos poetik tafakkurning aksi, reprezentatsiyasi sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotchilarning qayd etishlaricha, nemis tilida "vaqt" konsepti harakat bilan bog'liq: "Vaqt konseptiga xos antropomorfik va siklik metaforalarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, inson ongida vaqt ko'pincha harakat bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. "Vaqt – bu harakat" metaforik modeli chuqur ildizlarga ega. Arxaik jamiyatda vaqt osmondagi yorug'lik nurlarining harakati bilan o'lchangan, shuning uchun ham u harakat bilan bog'liq bo'la boshlagan. Harakat sifatida vaqt, ko'pincha, fe'l sifatida ifodalanadi. U sudrab ketishi, uchishi, yugurishi, oqishi, tomishi, yurishi mumkin"<sup>23</sup>.

*O'ldirib qo'ydingiz vaqtni bugun,  
go'yoki o'zingiz sezmaganda (Shavkat Rahmon).*

<sup>22</sup> Баруздина С. А. Время как лингвокультурный концепт// <https://cyberleninka.ru/article/n/vremya-kak-lingvokulturnyy-kontsept> (murojaat sanasi: 9.07.2023)

<sup>23</sup> Баруздина С. А. Время как лингвокультурный концепт// <https://cyberleninka.ru/article/n/vremya-kak-lingvokulturnyy-kontsept> (murojaat sanasi: 9.07.2023)

Shuningdek, shoirning tafakkurida vaqtni behuda o'tkazmaslik, vaqtning juda tez o'tib ketishi, uning qadriga yetish zarurligi ham noodatiy birikmalar yordamida verballashgan:

*Goho o'ldirishar ko'pchilik bo'lib,  
shunda vaqt bo'yalib qora qoniga,  
gumbirlab qulaydi har kuni moziy –  
adadsiz vaqtlar qabristoniga* (Shavkat Rahmon).

Vaqt – aslida mavhum tushuncha, uning rangi, ko'rinishi, shakli mavjud emas. Qoni bo'lishi-ku, umuman tasavvurga sig'maydigan hodisa. Lekin shoir tasavvuri shu qadar kengki, u vaqt behuda o'tkazilsa, “vaqt qora qoniga bo'yalib” ketishini, o'lishini, “adadsiz vaqtlar qabristoni”ga qulashini tasvirlaydi. Bu orqali esa Shavkat Rahmon shaxsiyatiga xos belgilar – vaqtning qadriga yetish, uni behuda sarflamaslik g'oyalari namoyon bo'ladi. Shoir tafakkuridagi “vaqt” konsepti aynan shunday noodatiy birikmalar va metaforalar yordamida verballashgan.

Shavkat Rahmon “Saylanma”sini tahlilga tortar ekanmiz, uning juda ko'p o'rinlarda “tog” konseptiga murojaat qilganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Uning 1986-yilda chop etilgan “Uyg'oq tog'lar” to'plami nomi ham ramziy ma'noda: tog'lari uyg'oq xalqning ruhi hamisha tetik bo'ladi.

*Tog' xo'rsinib yubordi og'ir  
Teran xobdan uyg'ondi yurak  
Tog'lar kabi xo'rsinmoq kerak* (Shavkat Rahmon).

She'riy parchada tog'larning xo'rsinishi kitobxonga estetik zavq beradi. Ammo to'g'lar xo'rsinsa, nima bo'ladi? Zilzila bo'ladi. Butun borliq, koinot uyg'onadi, larzaga keladi. Shoir ushbu she'riy parcha orqali xalqni, yelkasi oftobdan qoraygan xalqni, necha yillar zulmat kishanlari ostida ezilgan, peshonasiga “qora xalq” tamg'asi yopishtirilgan xalqni uyg'onishga chorlamayaptimikan? “Tog'lar kabi xo'rsinmoq kerak” deganda millatning millat bo'lishini, uyg'onishini, xalq uyg'onasa, o'zligini anglasa, evrilish bo'lishini ta'kidlayapti. Shoir “tog'” konsepti orqali ulug'vorlik bilan bir qatorda, og'ir, bosiq bo'lishni tarannum etyapti.

Shavkat Rahmon she'riyatining yana bir o'ziga xos xususiyati uning she'larini yaxlit holda tahlilga tortish zarurligidir. Alohida-alohida misralar yaxlit bir ma'noga ega bo'lmaydi. Bitta she'rning o'zida 5, 6 o'rinda ushbu so'z qo'llanadi, lekin hech bir qaytariq uslubiy g'alizlikka sabab bo'lmaydi. Shoirning 1997-yili nashr qilingan “Saylanma” asarida 100 marta *tog'* so'zi ishlatilgan (*qir, adir, cho'qqi, qoya* so'zlari bundan mustasno). “Saylanma”ning 176-betidagi “Sulaymon tog'i etagida o'ylaganlarim” she'rining o'zida 6 marta *tog'* so'ziga duch kelamiz. Lekin hech bir takror asar mazmuniga putur yetkazmaydi, aksincha kitobxonning o'zligini topishiga yordam beradi.

Muhammad Yusuf she'riy matnlarida “tog'” konsepti boshqa bir holatda namoyon bo'ladi.

*Qiz bor uyning fayzi bo'lak deydilar.  
Jannat yo'li – qiz bor yo'lak deydilar.*

*O'ngirimda o'g'lim yo'q deb o'ksimang,  
Tog' bo'lmasa, qir ham tirgak deydi* (Muhammad Yusuf).

Ko'rinib turganidek, ushbu nutq parchasida "tog'" konsepti "o'g'il farzand" ma'nosida kelyapti. O'zbeklarda, asosan, o'g'il farzand suyanchiq, tirgak hisoblanadi. Shoir shuni inobatga olgan holda, ushbu nutq parchasida *tog'*, *qir* leksemalarini qo'llaydi va bu o'g'il farzandi bo'lmaganlarga "yupanch" sifatida aytilgan. Qir "qiz farzand" ma'nosini ifodalashga xizmat qilgan.

*Hayotga to'yagan ko'zlarim,  
Vallomat tog'lardan yuksakda* (Rauf Parfi).

Ushbu nutq parchasida qo'llangan "vallomat tog'lar" birikmasida suyanchiqlik, xokisorlik, tirgaklik tushunchalari berilmagan. Birikma "kibrli insonlar" ma'nosida qo'llangan. Ijodkor qo'llagan so'zlardagi inja ma'nolarning zamirida o'sha millat va xalqqa tegishli bo'lgan universal fikrlar bo'ladi. Ammo shu umumiy fikrlar bir shoirda boshqa tarzda, yana bir ijodkorda boshqacha tarzda talqin qilinadi. Bizning millatda tog' ulug'vorlik mazmunini gavdalantirsa, bu konsept har bir ijodkorning qarashlarida turlicha namoyon bo'ladi.

**"Poetik tafakkurning lisoniy vositalar orqali ifodalanishi"** deya nomlangan dissertatsiyaning uchinchi bobi uchta paragrafdan iborat. Ushbu bobda metaforalar, o'xshatishlar, okkazional va noodatiy birliklar, oksyumoronlar va ularning poetik matnlarda qo'llanilishi xususida so'z boradi. Bobning "Metafora va o'xshatish poetik tafakkurni namoyon etuvchi vosita sifatida" deb nomlangan birinchi paragrafida Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf, Faxriyor kabi ijodkorlar asarlarida qo'llangan metafora va o'xshatishlar tahlilga tortilgan. XX asrga kelib kognitiv tilshunoslikning shakllanishi bilan metafora hodisasi tilshunoslarning diqqatini tobora ko'proq torta boshladi, metaforaga yangicha yondashuvlar yuzaga kela boshladi. XX asrning ikkinchi yarmida ijod qilgan shoirlar asarlarida metaforalar yangicha uslublarda ishlatilgan o'rinlarga duch kelamiz, ya'ni metaforalar orqali zamonning shiddat bilan o'zgarayotganini his qilishimiz mumkin. Quyida shoir Shavkat Rahmonning she'ridan misol keltiramiz:

*Bu qanday kun o'zi,  
Qanday kun o'zi,  
hattoki mushuklar, itlar ishshaydi.  
Soxta qahramonlar ketdilar to'zib,  
yolg'on daholarning og'zi qiyshaydi.*

She'r g'amgin ruhda yozilgan, emotsionallik kuchliligini she'rdagi kayfiyatdan sezamiz. O'quvchi she'rning tafsiloti nima haqidaligini, shoirning nima demoqchiligini bir qarashda tushunmasligi mumkin, lekin zukko kitobxon metaforaga o'ralgan bu misralarda salbiy bo'yoqdorlik ruhini his qiladi. Mushuk, itlarning ishshayishi metaforiklik kasb etgan. Manqurt, ikkiyuzlamachi insonlarning kulishi mushuk va itlar qiyofasida ochib berilgan.

Ijodkorlar tomonidan qo'llanilgan o'xshatishlar ham noodatiyligi, shoirlarning o'zigagina xos uslubni namoyon etishi bilan farqlanishi mumkin. Masalan, Shavkat

Rahmon ijodida chiroyli kechalari ilonga o‘xshatiladi: *Ilonday chiroyli kechalari ham.*

O‘zbek millatiga xos konseptosferada ilon salbiy, xunuk va sovuq mavjudot sifatida gavdalanadi. Biroq ilonni shoir tamomila teskari ma’noda qo‘llaydi, o‘xshatish uchun asos sifatida tanlaydi, chiroyli kechalarni ilonga o‘xshatadi. Bu esa shoirga xos individual-mualliflik uslubining o‘ziga xosligini namoyon etadi. Bizningcha, shoir tunning sokinligini ilonning ovozsizligiga qiyos etmoqchi bo‘lgan, o‘z tafakkurida gavdalangan ilonning chiroyliligi haqidagi qarashlarni poetik matnda aks ettirgan.

Shavkat Rahmon ijodida ilon bilan bog‘liq o‘xshatishlar ko‘p uchraydi. Quyidagi misolda shoir kuz faslini uch sariq ilonga o‘xshatadi:

*Bobochinor sergak mudrardi  
Kar, vaysaqi sherigi bilan.  
Allaqanday kelar sudralib,  
kuzak – xuddi uch sariq ilon (Shavkat Rahmon).*

Misralarda asta-sekinlik bilan kirib kelayotgan kuz fasli uchta sariq ilonning sudralib kelishiga o‘xshatiladi. Go‘yoki sariq rangli uchta ilon sekin sudralib kelyapti va atrofni sariq rangga to‘ldiryapti. Bunda ham shoirga xos individual fikrlash namoyon bo‘ladi.

Rauf Parfi quyosh bilan bog‘liq shaklga asoslangan o‘xshatishlardan keng foydalangan: *Quyosh – bir bosh! Quyosh – zambarak kabi.*

Bobning ikkinchi paragrafi “Poetik tafakkurning okkazional leksik birliklar vositasida reallashuvi” deb nomlangan. O‘zbek tilshunosligida okkazional birliklar va ular bilan bog‘liq lisoniy hodisalarga qiziqish yuqori bo‘lib, bir qator tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Lekin okkazional birliklar muallif idiositilini shakllantiruvchi vosita sifatida alohida tadqiq etilmagan va individual tafakkur mahsuli sifatida aynan tilning reprezentativ funksiyasi nuqtayi nazaridan tahlilga tortilmagan. Individual tafakkur va ijodkorning idiositili tushunchalari bir-birini taqozo etadi. Okkazional birliklarning qo‘llanilishi matnning qiziqarliligini ta’minlashga xizmat qiladi. Masalan, Faxriyor ijodiga nazar tashlasak, uning okkazional birliklarni mahorat bilan qo‘llaganiga guvoh bo‘lamiz.

*Yirtib tashlanmagan, g‘ijimlanmagan  
Armonni hijjalari dil og‘riqlari.  
Na “nima”lanmagan, na “kim”lanmagan  
Sog‘inchlaring toshga aylananar... qarib (Faxriyor)*

“Kim”lanmagan, “nima”lanmagan so‘zlari boshqa ijodkorlarda uchramaydi.

Ayrim hollarda okkazionalizmlar poetik matndagi boshqa so‘zlarga qofiyadosh bo‘lib kelishi, ohangdoshlikni ta’minlash uchun ham qo‘llanilishi mumkin:

*Bolazor, mevazor, tolzor ko‘chalar,  
Shoxlar yerga tegar shig‘il hosildan (Shavkat Rahmon).*

Shoir *mevazor, tolzor* so‘zlariga ohang va shakl jihatdan mutanosib so‘z qo‘llash maqsadida okkazional leksik birlik – *bolazor* so‘zini yaratadi. “Bola bilan

to‘lib-toshgan” ma‘nosini anglatgan ushbu okkazional birlik o‘quvchida tushunishda qiyinchiliklar tug‘dirmaydi, balki poetik matnning ravon va oson o‘qilishiga xizmat qiladi.

Rauf Parfida bu qo‘shimcha salbiy ma‘noli so‘zlarni yasash uchun qo‘llanilgan: *yolg‘onzor, o‘likzor* kabi.

Bobning uchinchi paragrafi “Noodatiy birikmalar – individual tafakkur mahsuli” deb nomlangan. Rauf Pafi ijodida *tovushsiz faryod, muzlagan olov, suyuq tosh, yig‘lagan yig‘i, tirilgan o‘lim, o‘liklar o‘ldirdilar, qop-qora qor, uyqu uxlaydi, ko‘klarga cho‘kmoqdaman, sukunat qarg‘ar edi, chopilgan oyog‘im bilan chopdim, kesilgan qo‘limni uzatdim*; Shavkat Rahmon ijodida *ovozsiz chinqirmoq, homilador bog‘* kabi noodatiy bog‘lanishlar uchraydi.

Noodatiy birliklar har bir ijodkorning individual tafakkuri mahsulidir. Zero “Haqiqiy yozuvchi hayotni o‘z ko‘zi bilan ko‘radi. Tabiiy, unda hayot voqealaridan ma‘no chiqarish qobiliyati, aniqrog‘i – shu ma‘noni kitobxonlarni o‘ziga chiqartira olish salohiyati ham bo‘lishi kerak”<sup>24</sup>.

## XULOSA

1. Olamning lisoniy manzarasi til yordamida insonning voqelikni idrok qilishi, shuningdek, uning tilda qanday ifodalanishini bildiradi. Har bir tilda so‘zlashuvchilar o‘sha tilga xos lisoniy vositalardan foydalangan holda dunyoni idrok etadilar va tafakkurlarida aks etgan g‘oyalarni verballashtiradilar.

2. Individual tafakkur shaxsning individual kognitiv, mental, psixologik jihatlari bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Shaxsning bilim darajasi, dunyoqarashi, fikrlashi, turmush tarzi kabi xususiyatlari uning ongida individual tafakkur tarzida shakllanadi va ular o‘z-o‘zidan lisoniy birliklar vositasida ifodalanadi. Bu orqali individual uslub, individual lisoniy xususiyatlar shakllanadi.

3. AQSh va Yevropa tilshunosligida matnni kognitiv poetik jihatdan tadqiq qilishda asosiy e‘tibor uning qanday tushunilishi masalalasiga qaratiladi. Rus tilshunosligida esa, aksincha, poetik asarni yaratishda muallif nimalarni ko‘zda tutgani, qanday fikrlarga tayangani, umuman, qay yo‘sinda tafakkur qilgani, muallifning individual kognitiv xususiyatlari keng o‘rganiladi. Rus tilshunoslari poetik matnning tushunilishi, idrok etilishi, shuningdek, individual ijodiy tafakkurning yuzaga chiqishini lisoniy reprezentatsiya hodisasi bilan bog‘liq holda tadqiq qilish o‘rinli ekanini qayd etadilar. O‘zbek tilshunosligida ham kognitiv poetika rus tilshunosligida qo‘llaniladigan ma‘noda talqin qilinadi.

4. Kognitiv poetika kognitologiya, tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalari bir nuqtada jamlangan yo‘nalish bo‘lib, adabiyotshunoslar muallif kognitiv olamining badiiy asarlarda aks etishi xususiyatlarini o‘rganish bilan shug‘ullansalar, tilshunoslar ana shu aks etishda qo‘llaniluvchi lisoniy va uslubiy vositalarning xususiyatlarini tahlil qiladilar.

5. O‘z konseptual olamini lisoniy vositalar yordamida aks ettirar ekan, har qanday shoir o‘ziga xos fonetik, leksik, sintaktik birliklardan foydalanishga harakat

---

<sup>24</sup> Шукур Холмирзаев замондошлари хотирасида. – Тошкент, 2010. – Б.281.

qiladi, stilistik vositalarni ham individual tarzda qo'llashga intiladi. Olamning individual poetik manzarasi ikki maqsadni: shoirning konseptosferasini individual tarzda aks ettirish va individual lisoniy hamda stilistik vositalar yordamida shoirlarga xos uslubni yaratish maqsadlarini namoyon qiladi.

6. Poetik matn tilshunoslikning, badiiy adabiyotning eng murakkab va ifodali shakllaridan biri hisoblanadi. Bunday matnlarda obrazli ifoda vositalari keng qo'llanilib, ularning hissiy va emotsional ta'sir kuchi yuqori bo'ladi. Poetik matnlar, odatda, o'ziga xos ritm va tuzilishga ega bo'lib, ularning tili an'anaviy so'zlashuv tilidan farq qiladi. Poetik matn bevosita berilgan voqelikni aks ettirmaydi, balki muallifning ushbu voqelik haqidagi bilimini, ya'ni ideal obraz va g'oyalarning subyektiv dunyosini, subyektiv tajriba va kechmishlarni aks ettiradi.

7. Lisoniy tafakkur bevosita poetik matn ko'rinishiga kelib, u lingvokognitiv nuqtayi nazardan tahlil qilinganda til funksiyalarining o'rni beqiyos hisoblanadi. Poetik matnlar uchun esa reprezentativ, referentativ, konativ, estetik, ekspressiv-informativ, emotiv kabi lisoniy funksiyalar xos bo'lib, ular poetik tafakkurning lisoniy reprezentatsiyalashuvida muhim ahamiyat kasb etadi.

8. Shoirning tafakkuri til yordamida voqelanar ekan, o'z-o'zidan, shaxsiy bilim, saviya, dunyoqarash, shuningdek, shaxsiy xislatlar ham lisoniy vositalar yordamida tilda ifodalanadi, muallifning "men"i namoyon bo'ladi. Tayyor bo'lgan ijod namunasini tushunish uchun esa ma'lum darajada tafakkur uyg'unligi talab etiladi. Har qanday ijod mahsuli yaratilar ekan, unda muallif "men"i namoyon bo'ladi, ijodkorning bilimi, saviyasi, qiziqishlari, ichki dunyosi, fikrlash darajasi va boshqa xususiyatlar poetik matnda qo'llanuvchi lisoniy vositalarga ta'sir ko'rsatadi.

9. Bir konsept turli shaxslar ongida turlicha shaklda konseptuallashadi va nutqda ham o'ziga xos lisoniy vositalar yordamida verballashadi. Bir konseptning turli jihatlari turli shoirlar ijodida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi va u shoirning individual-mualliflik uslubi, ichki "men"i, konseptosferasining in'ikosi sanaladi.

10. Metaforalar, o'xshatishlar til va tafakkur bilan chambarchas bog'liq bo'lib, inson ongining murakkab va chuqur ko'rinishlarini ifodalovchi vositalardan sanaladi. Bu esa shoirga xos individual-mualliflik uslubining o'ziga xosligini namoyon etadi.

11. Okkazional so'zlar, noodatiy birikmalar va oksyumoron ijodkorlarga xos individual uslubni va poetik tafakkurni yaqqol reprezentatsiya qilishi bilan ahamiyatlidir. Bunday lisoniy vositalar yordamida shoirlarning konseptosferasini, ularning dunyoqarashi va ichki dunyosini anglash mumkin. shu o'rinda, bunday vositalarni tushunish o'quvchidan ham ma'lum tayyorgarlik, bilim va fikrlash uyg'unligini talab qiladi.



**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING  
SCIENTIFIC DEGREES PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04  
AT NAMANGAN STATE UNIVERSITY**

---

**NAMANGAN STATE UNIVERSITY**

**IBRAGIMOVA IRODA ARTIKMASHRABOVNA**

**THE LINGUISTIC REPRESENTATION OF POETIC THOUGHT  
(ON THE EXAMPLE OF THE 20<sup>th</sup> CENTURY UZBEK POETRY)**

**10.00.01 – Uzbek language**

**ABSTRACT  
OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) DISSERTATION IN PHILOLOGY**

**Namangan – 2024**

**The theme of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation is registered in the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under the number B2021.1.PhD/Fil11544**

The doctoral dissertation was completed at Namangan State University.

The abstract of the dissertation in three languages (Uzbek, English, Russian) is posted on the website of the Scientific Council ((www.namdu.uz) and on the information and education portal "ZiyoNet" (www.ziynet.uz).

**Scientific supervisor:**

**Rozikova Gulbakhor Zaylobidinovna**  
doctor of sciences, professor

**Official opponents:**

**Normamatov Sul-tonbek Ermamatovich**  
doctor of sciences, professor

**Madrahimov Ithomjon Sobirovich**  
doctor of sciences, associate professor

**Leading organization:**

**Andijan State University**

Dissertation defense will be held at the meeting of the Scientific Council numbered PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 at Namangan State University on "\_\_\_" \_\_\_\_\_ at \_\_\_\_\_, 2024.

(Address: 160119, city of Namangani, Boburshoh str., 161-uy. Tel.: (+99869) 227-06-12; Tel.: (998-69) 228-85-01, Fax: 228-85-02. Web-sayt: www.namdu.uz, e-mail: info@namdu.uz faks: (+99869) 227-07-61; e-mail: info@namdu.uz.)

The dissertation can be found at the Information Resource Center of the Namangan State University (registered with the number \_\_\_\_). (Address: 160119, city of Namangan, Uychi str., 316. Tel.: (99869) 227-29-81).

The abstract of the dissertation was distributed on "\_\_\_" \_\_\_\_\_, 2024.  
(Report of the digital register of \_\_\_\_ on \_\_\_\_\_ of 2024).

**Z.Y.Sadikov**

Chairman of the Scientific  
Council awarding scientific degrees,  
Doctor of Philological Sciences (DSc),  
Professor

**I.U.Darvishov**

Scientific Secretary of the  
Scientific Council awarding scientific  
degrees, Doctor of Philosophy on  
Philological Sciences, Associate  
Professor

**F.I.Karimova**

Chairman of the Scientific  
Seminar under  
the Scientific Council awarding  
scientific  
degrees, Doctor of Philological  
Sciences, Associate Professor

## **INTRODUCTION (Doctor of Philosophy (PhD) Dissertation Annotation)**

**The relevance and necessity of the dissertation topic.** A number of studies have been carried out in the world linguistics on the linguopoetic properties of poetic text, however, the systematic substantiation of the reflection of the poet's creative thought in poetic works created in the second half of the 20th century, the conveying of the content and significance of artistic sources to future generations is more important than ever. At the same time, the study of the linguistic expression of poetic thought on the basis of the individual linguistic world picture, the analysis of issues such as the fact that poetic metaphors, occasional units, unusual connections are a product of the poet's creative thought, the study of such units on the basis of epistemological principles, the impact of the information represented in the author's mind on the emotions of communicators, and the elucidation of the relationship between language and thought within the framework of cognitive poetics are considered important tasks facing world linguistics. The result of the practical solution of these tasks makes it possible to achieve new scientific achievements in the analysis of the language of the works of artists who lived and worked in the second half of the 20th century.

In the world linguistics, the linguocognitive approach to the interpretation of the relationship between language and thought is becoming a fundamental basis for elucidating the patterns inherent in the functional-semantic and stylistic characteristics of concepts, metaphors, occasional units, and unusual connections in the language of poetic texts of the second half of the 20th century. It is becoming increasingly clear that the theoretical aspects of the problem can be fully substantiated only by describing the representation of creative thinking in poetic texts, spiritual relationships within linguistic units in connection with the individual linguistic world picture characteristic of a particular period of language, and by thoroughly analyzing the cognitive processes characteristic of linguistic units on the basis of new scientific paradigms.

In Uzbek linguistics, studies have been created related to the language of written sources of the second half of the 20th century, and scientific research has been conducted on the lexical-semantic, morphological, and syntactic characteristics of the language of this period. The need to “fundamentally increase the prestige of the Uzbek language in the social life of our people and internationally, to educate our growing youth in the spirit of patriotism, devotion to national traditions and values, and to ensure the full introduction of the state language in our country”<sup>25</sup> serves as the basis for studying the invaluable spiritual heritage of the creators of Uzbek literature of the second half of the 20th century from the point of view of linguistics. Despite the fact that some scientific sources have been created in Uzbek linguistics on the works of such authors as Rauf Parfi,

---

<sup>25</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish vat il siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son farmoni. Manba: <https://lex.uz/docs/5058351> (murojaat sanasi: 10.05.2024)

Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf, Fakhriyor, these authors' works have not been specifically studied in terms of the representation of poetic thought. Studying the works of our poets who created in the second half of the 20th century allows forming a full-fledged idea of the national-cultural, socio-political lifestyle and the linguistic world picture of the Uzbek people.

This dissertation work serves to a certain extent to improve implementation mechanisms of the tasks specified in regulatory legal documents as PR-5850 “On measures to radically increase the prestige and status of the Uzbek language as the state language” dated October 21, 2019, PR-6084 “On measures to further develop the Uzbek language and improve language policy in our country” dated October 20, 2020, PR-60 “On the Development Strategy of the New Uzbekistan for 2022-2026” dated January 28, 2022; PD-2789 “On measures to further improve the organization, management and financing of the activities of the Academy of Sciences, scientific and research work” dated February 17, 2017, PD-4779 “On the broad celebration of the thirtieth anniversary of the adoption of the Law of the Republic of Uzbekistan “On the State Language”” dated October 4, 2019, and other regulatory legal documents related to this activity.

**The appropriateness of the research to the prior directions of the development of science and technologies.** The study was carried out in accordance with the priority area of the development of science and technology of the republic I. “Social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of an informed society and a democratic state, development of an innovative economy”.

**The scope of study of the problem.** In the world linguistics, priority areas have been identified for the linguopoetic study of speech, and scientific research is being conducted in such areas as: substantive approaches to the segmentation of sentences in the analysis of poetic speech; translation studies of poetic speech; study of syntactic devices in poetic idiolect; study of expressiveness in poetic speech and the means of its manifestation; elucidation of the proportion of form and content in poetic speech within the framework of cognitive research; lexical-semantic and stylistic study of poetic onomastics; linguo-cultural approach to translation and problems of translations of poetic works.

For many years, the issues of poetic speech have been covered in the scientific research works of V.V.Vinogradov, G.Y.Solganik, I.R.Galperin, G.V.Stepanov, V.M.Zhirmunsky, D.N.Shmelev, B.A.Larin, N.P.Nebrosina, Y.M.Lotman, Y.M.Trofimova, L.A.Khoreshko, N.S.Bolotnova, I.I.Kovtunova, Y.V.Kazarin, E.I.Koroleva, A.A.Lebedev, V.N.Patrojeva, V.V.Babaytseva<sup>26</sup>.

---

<sup>26</sup> Виноградов В.В. Язык и стиль русских писателей. – М.: Наука, 1990; Солганик Г.Я. Синтаксическая стилистика. – М.: Высшая школа, 1973; Солганик Г.Я. Стилистика текста. – М.: Флинта, 2024; Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981; Степанов Г.В. Язык. Литература. Поэтика. – М.: Наука, 1988; Жирмунский В.М. Рифма, её история и теория // Теория стиха. – Л.: Наука, 1975; Шмелев Д.Н. Слово и образ. – М.: Наука, 1964; Ларин Б.А. Эстетика слова и язык писателя. – Л.: Художественная литература, 1974; Небросина Н.П. Синтаксис стихотворной речи как предмет лингвопоэтического исследования: на материале английской и американской поэзии XVI-XX вв: Автореф. дисс. ...док. филол. наук. – Пермь. 1997; Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1998; Лотман Ю.М. Анализ поэтического текста. – Л.: Просвещение (Ленинградское отделение), 1972;

To date, as a result of numerous scientific studies on the aesthetic function of language, a number of textbooks and manuals on stylistics, a number of studies devoted to the study of stylistic means and devices have been published<sup>27</sup>. Also, some research was conducted on the works of Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf and Fakhriyor<sup>28</sup>. However, the linguistic representation of poetic thought has not been studied in a monographic plan based on the works of such creators as Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf, Fakhriyor, who lived and worked in the second half of the 20th century.

